

RAQAMLI IQTISODIYOTDA KIBERXAVFSIZLIKNING TUTGAN O'RNI

Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467319>

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlikning o'rni, hisoblangan kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalariga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek mamlakatimizning kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reytingdagi o'rni va 2018-2019 yillarda internet milliy segmentida ro'y bergan intsidentlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli ma'lumotlar, axborot xavfsizligi, internet milliy segmenti, intsident, tahdid, elektron hukumat, axborot tizimlari va resurslari.

THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY

Abstract. This article examines the role of cyber security in the digital economy, the issues of ensuring cyber security, which are being implemented in Uzbekistan. Also, the place of our country in the international global ranking of cyber security and the incidents that occurred in the national segment of the Internet in 2018-2019 were analyzed.

Key words: digital data, information security, national segment of the Internet, incident, threat, electronic government, information systems and resources.

РОЛЬ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль кибербезопасности в цифровой экономике, вопросы обеспечения кибербезопасности, которые реализуются в Узбекистане. Также проанализировано место нашей страны в международном глобальном рейтинге кибербезопасности и инциденты, произошедшие в национальном сегменте сети Интернет в 2018-2019 годах.

Ключевые слова: цифровые данные, информационная безопасность, национальный сегмент Интернета, инцидент, угроза, электронное правительство, информационные системы и ресурсы.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida dvlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020 yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qildi. 2020 yil 2 martda esa Prezidentimizning "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni bilan "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturi beshta asosiy yo'nalishlardan iborat bo'lib, dasturning beshinchi yo'nalishida 2020-2023 yillarga mo'ljallangan Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya hamda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish belgilanib qo'yilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Prezidentimizning 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni Hukumatimiz tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga va hayotga tatbiq etilishiga asos bo'ldi. Raqamli ma'lumotlarni boshqarishda axborot xavfsizligini ta'minlash

muhim omil sanaladi. Bunda asosiy e'tibor raqamli ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, ularni axborot vositachilaridan himoya qilgan holda xavfsizligini ta'minlash va axborotlar uzatishning soddaligini ta'minlashga qaratilishi lozim.

Mazkur maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishini "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida" amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi va "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, shuningdek, Prezidentimizning "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini nazorat qilish va himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning barcha sohalarida avtomatlashtirish axborot tizimlaridan foydalanilganda, axborot xavfsizligi masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ko'plab ma'lumotlar raqamlashtirilgan, elektron shaklda saqlanganida axborot va kiberxavfsizlik masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Davlatimiz rahbari axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislariga shunday iltimos bilan chiqdiki, ular nafaqat bu borada sodir bo'lgan noxush hodisalarni o'rganib, bartaraf etishlari, balki bunday holatni oldindan ko'ra bilishlari, ya'ni, oldini olishlari muhim deb ta'kidladilar.

Raqamlashtirish va kiberxavfsizlik tushunchalari doimo yonma-yon ketadi. Chunki barcha tizim va jarayonlarni raqamlashtirish bilan birga ularning texnik jihatdan mukammal va xatosiz ishlashi va xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qanchalik e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, kiberxavfsizlikni ta'minlashga ham shunchalik ahamiyat berilmoqda. Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan har yili e'lon qilinadigan kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reytingda mamlakatimiz yuqori o'rinlarda borayotgani bunga yaqqol misoldir.

Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro global reyting ABI Research va HEI (Xalqaro telekommunikatsiyalar ittifoqi) qo'shma loyihasi bo'lib, indeks mamlakatlarning kiberxavfsizlik sohasidagi ishtiroki darajasini baholash imkonini beradi. Majburiyat darajasi beshta yo'nalish bo'yicha baholanadi: huquqiy chora-tadbirlar, texnik chora-tadbirlar, tashkiliy chora-tadbirlar, salohiyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlik. 2019-yilda kiberxavfsizlik bo'yicha jahon reytingi sarhisobiga ko'ra, O'zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksida 90-o'rin, Global kiberxavfsizlik indeksida 52-o'rin va AKT rivojlanishi indeksida 95-o'rinni egalladi.

O'zbekiston global kiberxavfsizlik indeksida o'z o'rnini mustahkamlamoqda. 2017-yilda mamlakatimiz ushbu reytingda 93-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019-yilda 52-o'ringa ko'tarildi.

Kiberxavfsizlik - bu keng ma'noda axborot texnologiyalari, ya'ni qurilmalar, dasturlar, axborot tizimlari va ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu ma'lumotlarning maxfiylikini saqlash, ularning yaxlitligini himoya qilish, dasturlar va axborot tizimlarining uzilishlarsiz to'liq ishlashini ta'minlashni anglatadi. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

"Kiberxavfsizlik markazi" DUK(Davlat unitar korxonasi) tahlillariga ko'ra, 2019 yilda internetning milliy segmenti veb-saytlarida 268 ta kiberxavfsizlik intsidenti aniqlangan. Bu raqamli olamdagi huquqbuzarliklar soni oldingi yilga qaraganda 44 foizga kamaygan deganidir. Shulardan 222 tasi kontentni ruxsatsiz yuklash, 45 tasi defeys (veb-sayt sahifasi boshqa, masalan,

reklama joylashtirilgan sahifaga almashtirilishini anglatuvchi xakerlik hujumi) va bittasi yashirin mayning (kriptovalyuta platformasidagi yashirin faoliyat) ulushiga to'g'ri keladi. 2018 yil bilan solishtirganda, internet milliy segmentida ruy bergan intsidentlar soni 2019 yilda ancha kamaygan, bu esa kiberxavfsizlik sohasida amalga oshirilgan ishlar ijobiy samara berganligini ko'rsatadi.

Intsidentlarning 69 foizi O'zbekistondagi xosting-provayderlarida joylashgan veb-saytlarda aniqlangan, qolgan 31 foizi xorijiy davlatlardagi xosting-provayderlaridagi saytlarga tegishli. 80 ta holatga nisbatan tekshirish ishlari olib borilib, aniqlangan zaifliklarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan, qolgan 188 ta holat veb-sayt egalari tomonidan mustaqil ravishda bartaraf etilgan.

XULOSA

Kiberxavfsizlikka doir me'yorlarning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi nihoyatda zarur.

Raqamli olam hali-hamon huquqiy jihatdan o'z maqomini aniq belgilay olgani yo'q. Kun sayin tahdidlarning yangi tur va shakllari paydo bo'layotganligi, ularni qonunchilikda aks ettirish zarurligi talab etadi. Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani ishlab chiqish milliy kibermakonda jinoyatchilikka qarshi qurashish sohasidagi faoliyatni tartibga soladi. Zero, virtual olamdagi jinoyatchilikning zarar va xavfi real olamdagidan kam emas. 2020–2023 yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyaga ko'ra kiberxavfsizlikning yagona tizimi va muhim hisoblangan infratuzilmani kiberhujumlardan himoya qilish sohasidagi huquqiy baza shakllantiriladi.

“Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi qonunda esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish kabilar aks etishi kutilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga zamin bo'lib kelmoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “2017 — 2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi Farmoni, 2020 yil 2 mart, PF-5953-son
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2018 yil 19 fevral, PF-5349-son
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2018 yil 21 noyabr, PQ-4024son
4. O'zbekiston Respublikasi prezidentining “«Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga 1-ilova “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079-son

5. <https://www.itu.int> - Halqaro elektroaloqa uyushmasining rasmiy sayti
6. <https://ncsi.ega.ee/country/uz/> - National Cyber Security Index
7. <https://tace.uz> - Kiberxavfsizlik markazi davlat unitar korxonasi rasmiy sayti
8. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
9. Shadiyev, A. (2022). O 'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 13(13).
10. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ" ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
11. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
12. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
13. Khalilov Bahromjon Bahodirovich. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746–750.
14. Raxmonqulova, N. (2023). DEVELOPMENT STRATEGY IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(12), 301-305.
15. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
16. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 73-76.
17. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 23-28.
18. Рахманкулова, Н. (2023). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНАЛЬНОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.
19. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559–568.
20. To'rayevna, S. N. (2023). DEMOKRATIYA VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.
21. To'rayevna, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.

22. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477–482.
23. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
24. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470–476.
25. Очилов, Ш. Б., & Жумаева, З. К. (2017). Основные направления развития инноваций в республике Узбекистан. *Инновационное развитие*, (6), 45-47.
26. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). Пути дальнейшего совершенствования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. *Инновационное развитие*, (4), 66-68.
27. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
28. Nargiza , N. . (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889–893.
29. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
30. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
31. Ikromov , E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107–1111.
32. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296–300.
33. Bustonovna, J. Z. (2023). PECULIARITIES OF THE AGRICULTURAL ECONOMY IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1256-1260.
34. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.
35. Abidovna, A. S. (2023). PRIORITY DIRECTIONS OF ANALYSIS OF CHANNELS OF PROMOTION OF THE MAIN ACTIVITY OF THE ENTERPRISE AND SEPARATE COMMUNICATION PROGRAMS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 369-374.